

mintaqa va mamlakat darajasidagi aralashuvlarni sezilarli darajada buzishi mumkin. Ushbu xatarlarni bartaraf etish uchun nisbatan past narxlarda amalga oshiriladigan taqqoslash vositalari tavsiya etiladi. Sinov modellari o'qitish metodikasi va o'quv dasturining mazmuniga ta'sir qiladi, shuning uchun Moo'quv dasturi va ta'lim standartlarini ishlab chiqishni yakunlash uchun ushbu masalani hal qilish kerak. PISA, TIMSS, PIRLS kabi yirik namunalarga asoslangan xalqaro baholash, avvalambor, o'quvchilar faoliyatini boshqa ta'lim tizimlari bilan taqqoslashga qaratilgan. Ushbu baholashlar, hisobot berish uchun foydali vositalar bo'lishiga qaramay, har tomonlama baholash vositasi yoki sinf amaliyoti bilan aloqa qilishning bevosita vositasi sifatida foydalanishga mo'ljallanmagan.

Yangi darsliklarni ishlab chiqish yuqori darajada mahalliyashtirilgan kontentni yaratishga imkon berishi mumkin bo'lsa-da, u past sifatli kontentga, xarajatlarning ko'payishiga va tender, shartnomalar tuzish, shartnomalarni boshqarish va hokazolarga tegishli muvofiqlik muammolariga olib kelishi mumkin. Ushbu muammolar, vaqt cheklangan bo'lsa, sinov paytida ayniqsa salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ushbu yondashuv bilan maktablarda foydalanish uchun "kartografik" manbani ishlab chiqish mumkin. Unda hal qilinishi kerak bo'lgan turli xil vakolatlar haqida umumiy ma'lumot beriladi va keyinchalik ular bir qator manbalardan olingan oldindan qo'llanilgan darsliklarda aniq tarkib bilan bog'lanadi. Bu potentsial ravishda tejashni ta'minlashi va tasdiqlangan manbalardan foydalanishi mumkin, ammo, shubhasiz, avvalgi modelga qaraganda kamroq "mahalliyashtirilgan" bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pedagogdan juda ko'p kasbiy va insoniylik xislatlari talab etiladi. Masalan, bugungi kunda Milliy o'quv dasturi asosida 1-2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarini tashkil etishda eng samarali interfaol metodlardan foydalanib darslarni tashkillashi, oz vaqtda ko'p natijaga erishish usullaridan foydalanishi, o'quvchilarini darsga qiziqтира olishi, dars jarayonida ko'zlangan maqsadga erisha olishi va o'quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash talab qilindi. Shuning uchun o'qituvchi o'z ustida tinimsiz va muttasil ishlashi, o'zini isloh etib borishi, bilimi va xulqini doimiy takomillashtirib borishi zarur. Zero, mamlakatimizda o'qituvchilarga yetarlicha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Prezidentimizning "O'zbekistonda bugundan boshlab, eng hurmatli, eng e'zozli inson — bu muallim!" yoki "O'qituvchini hurmat qilmaganni men ham hurmat qilmayman!"²³, deb ta'kidlab turganligining o'zi biz pedagoglarga katta kuch-quvvat bag'ishlashi kerak, deb o'ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 1-oktabr O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlagan tantanali marosimdagi nutqi. 2021 yil 1 oktabr.
2. Yangi milliy o'quv dasturi avvalgilaridan nimasi bilan farq qiladi? AOKA press-xolida o'tgan brifing. 2020-yil.
3. Recommendation to National Curriculum Framework Uzb. Milliy o'quv dasturi haqida ma'lumotlar majmuasi.
4. G'afforova T Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O'quv qo'llanma. Toshkent. Tafakkur, 2011.
5. Muslimov N. va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari – Toshkent: 2015. – 208 bet.
6. Qosimova K. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent-2009.
7. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2003.
8. Internet ma'lumotlari: [www. ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
9. www.pedagog.uz

**O'RTA OSIYODA TARIXIY-GEOGRAFIK BILIMLAR (O'RTA ASRLAR YOZMA
MANBALARI ASOSIDA)**

Jo'rayev Otabek Nematjon o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muallif O'rta Osiyodagi ayrim hududlarning tarixiy-geografik joylashivi va ularda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy hayotni yoritgan.*

Kalit so'zlar: *Baqtriya, Avesta, Baqtr shahri, Sopolli madaniyati, Dashtli madaniyati, Bronza davri, Jarqo'ton, Tillatepa, Kuchuktepa, Qiziltepa.*

Ma'lumki, O'rta Osiyoda davlatchilik tarixi «Avesta»da eslatilgan Baqtriya, So'g'd va Qadimgi Xorazm davlatlarining shakllanishi bilan boshlanadi degan g'oya tarixchilarimiz asarlarida ustuvorlik qilib kelgan.

Hattoki, hozir ham davlatchilik tarixiga bag'ishlangan asarlarda bu fikrlar uchrab turibdi. Arxeologiya fanida davlatchilik tarixini mil.av. II ming yillikdan boshlash imkonini beruvchi arxeologik manbalar to'plandi. O'zbekiston hududida ilk davlatchilik tarixini o'rganishda uning tarixshunosligini yoritish, undan kelib chiqadigan vazifalarni belgilab olish lozim. Baqtriya ilk davlatchiligi tarixining o'rganilishi. Baqtriya - O'rta Osiyo xalqlarining moddiy hamda ma'naviy hayotida o'z o'rniga ega bo'lgan hudud. Uning sarhadlari hozirgi Janubiy O'zbekiston, Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston hududlariga to'g'ri keladi. Baqtriya hududida ilk sinfiy munosabatlarning vujudga kelishi va davlatchilik tarixi bo'yicha XIX asr so'nggida evropa tarixchilari o'rtasida munozaralar boshlangan. V. Geyger, E. Raysh, T. Nolidеke, XX asr boshida J. Prasheklar Baqtriya tarixi bilan shug'ullanib, Ahamoniylar imperiyasiga qadar ham qandaydir siyosiy birlashmalar bo'lganligi to'g'risida ma'lumotlar bergan. Ular asosan quyidagi antik davr tarixchilarining yozma manbalariga tayanganlar. Ktesiy Knidskiy "Baqtriya kuchli va qudratli mamlakat, VIII asrdayoq mustaqil davlat bo'lgan" deb ta'riflaydi. Ktesiy Knidskiyning asarlari o'rta asr tarixchisi Fotiyning asarida ilova tariqasida bizgacha etib kelgan. Diodor o'z asarida Ossuriya shohi Ninning Baqtriyaga qarshi jang tafsilotlarini yozgan. Asar boshida Ninning Semiramidaga uylanish tafsilotlari tasvirlangan. Diodorning yozishiga qaraganda Nin Baqtriyani mag'lub etish og'irligini, aholisining ko'p sonli ekanligini va jangda mohirligini, qal'alarining ko'pligini bilgan. Shunga qaramay u ko'p sonli qo'shin yig'adi va birinchi jangda Baqtriya shohi Oksiartdan tog' yo'ldan tekislikka chiqadigan joyda mag'lubiyatga uchraydi. Nin Baqtriya bilan bo'ladigan yangi jangga tayyorlanadi Diodor Baqtriya poytaxti Baqtr shahrini quyidagicha ta'riflaydi, Baqtr yirik shaharlardan biri, u go'zal, egallab bo'lmas qal'a». Nin Baqtra shahrini uzoq vaqt qamal qiladi. Shahar Semiramidaning ayyorligi natijasida ishg'ol qilinadi. Baqtrliklar mag'lubiyatga uchraydi. Baqtriya shohi o'ldiriladi. Nin Baqtriyaning boyliklarini talaydi.

Tadqiqotchilar o'rtasida Ossuriya bilan O'rta Osiyo, xususan Baqtriya oralig'idagi uzoq masofani hisobga olib, yuqoridagi ma'lumotlarni tarix sahifasidan chiqarib tashlash kerak, degan munozaralar ham uchraydi. Ma'lumki, bu masalaga I.M. Diyakonov oydinlik kiritgan. Uning izlanishlari tufayli topilgan Ossuriya ayg'oqchilarining o'z shohiga yozgan nomasidagi quyidagi ma'lumotdan so'ng antik davr tarixchilari ma'lumotlari o'z kuchini saqlab qoldi: "... lekin, men lazuritni olib ketganimgan so'ng, mamlakatda bunga qarshi qo'zg'olonlar boshlandi, shundan so'ng katta harbiy kuch yuborishni iltimos qildim.. Ma'lumki, Yaqin Sharqda Baqtriya lazuritlari yuqori baholangan. Shu tariqa tarix faniga Qadimgi Baqtriya shohligi to'g'risidagi ma'lumotlar kirib kelgan. Ahamoniylar sulolasini va tarixini o'rganishda asosiy manbalardan biri bo'lgan Bexustun yozuvlarida Baqtriya to'rt marotaba tilga olingan. Bu yozuvlardan Baqtriya davlatchiligi yoki aholisining ijtimoiy tabaqalari to'g'risida ma'lumotlarni o'qiy olmasak-da, Suza saroyini bezashda Lidiya va Baqtriyadan keltirilgan oltinlar, Baqtriya tarkibida bo'lgan Marg'iyonadagi Frada boshchiligidagi qo'zg'olon yoki geografik o'rni va chegaradosh mamlakatlari to'g'risidagi ma'lumotlar bor Gerodot asarlaridan ham Baqtriyaning Qadimgi Sharq xalqlari orasida o'z o'rni bo'lganligini bilish mumkin. Jumladan, Kirning harbiy yurishlari lozim bo'lgan mamlakatlar Vaviloniya va Misr qatorida Baqtriya va Saklar ham sanab o'tiladi. Baqtriyaliklarning qurol-aslahalari va harbiy qo'shinidagi tartib ham Gerodot e'tiboridan chetda qolmagan. U baqtriyaliklar yaratgan moddiy madaniyat O'rta Osiyoda yashaydigan boshqa xalqlarga o'rnak bo'lganligini aytib, ariylar, xorasmiyaliklar, so'g'diylar, gandariyaliklar va dadiklar qurol yasashda baqtriyaliklarga o'xshatib yasaganligini misol qilib ko'rsatadi. Yirik sharqshunos olim V.V. Bartolid rus tarixchilari orasida birinchi bo'lib, Baqtriyada Ahamoniylar imperiyasiga qadar ham davlatchilik bo'lganligini aytib, Ktesiy Knidskiy ma'lumotlari asosan o'sha vaqtda bitilgan O'rta Osiyo epik tradisiyalariga asoslanib yozilgan, degan xulosaga kelgan.

S.P. Tolstov Diodorning Baqtriya shaharlari, xususan Baqtr shahri to'g'risidagi ma'lumotlari, ya'ni shaharning arki, qal'a devorlarining shaharni o'rab turganligi haqidagi ma'lumoti asosida Ahamoniylar imperiyasiga qadar Baqtriyada davlatchilik bo'lganligini tan oladi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarga mansub deyarli barcha ilmiy tadqiqotlarda Ahamoniylar bosqiniga qadar Qadimgi Baqtriyadadavlatchilik bo'lganligi qayd etilgan. Fransuz arxeologi A. Fushe Baqtr shahrida arxeologik tadqiqotlar olib borib, shaharning qadimgi madaniy qatlamlarini topa olmaydi va "Baqtriya uydirma, uning hech qanday qadimiy tarixi yo'q. Bu erga madaniyatni, davlatchilik siyosatini Ahamoniylar olib kelgan" degan g'oya bilan chiqdi. Shundan so'ng, Baqtriya hududida bronza davriga oid Sopolli, Dashtli2, so'nggi bronza va ilk temir davriga oid Kuchuktepa3, Tillatepa4, Qiziltepa5, Qadimgi Baqtriya madaniyatlari ochildi. O'rganilgan ushbu madaniyatlar asosida E.E. Kuzimina "Baqtriya uydirma emas, tarixiy haqiqatdir" degan g'oyani ilgari surdi. M.M. Diyakonov Janubiy Tojikiston hududidagi Boldoytepa, Kofirnihon yodgorliklarini o'rganib, «Makedonskiy va Ellin davridan avval ham O'rta Osiyoda o'ziga xos o'troq madaniyat va sinfiy jamiyat bo'lgan» degan xulosaga keldi. Uning «mil.av. VI-IV asrlarda O'rta Osiyo hududida yirik davlatlar birikmasi bo'lmagan, ilk davlatlar hududlari sug'orilish rayonlari

chegaralari bilan mos kelgan» degan xulosasi bilan kelishib bo'lmaydi. Albatta, bu fikr juda ko'plab tadqiqotchilarning tanqidiga sabab bo'ldi. Bizning fikrimizcha M.M. Diyakonov bir tomonlama haq. Negaki, Qadimgi Baqtriya podsholigi ilk temir davrida shakllangan hududiy davlatlar konfederasiyasidan tashkil topgan. Kofirnihon va Vaxsh dehqonchilik o'lkalarida bitta hududiy davlatning shakllanganligini inobatga olsak, M.M. Dyakonov xulosalarining tarixiyliigi ko'rinadi.

Shimoliy Afg'oniston hududida Dashtli madaniyatini o'rgangan V.I. Sarianidi Qadimgi Baqtriya davlatchiligi to'g'risida shunday deydi: «Baqtriyada bronza davrida shahar madaniyatining gullashi bu erda Ahamoniylargacha bo'lgan davrda davlatlarning paydo bo'lishiga olib kelgan». Sopollitepa va Jarqo'ton yodgorliklari Baqtriya hududida ilk sinfiy munosabatlar va davlatchilik tarixini o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Sopollitepa yodgorligining simmetrik plani va qabrlarda uchraydigan idishlar tarkibi va soni marhumlar yoshiga qarab ortib borganligi Sopollitepa jamoasining ijtimoiy jihatdan tengligini, jamoa hayotida oqsoqollarning o'rni katta ekanligini va kam sonli aholining ahil yashaganligini tasdiqlaydi. Jarqo'ton yodgorligida esa jamoalarning ijtimoiy guruhlarga ajralganligini ko'rsatuvchi minglab qabrlar, yodgorlikning shahar toifasiga oidligini tasdiqlovchi saroy qoldig'i, mafkuraviy markaz bo'lganligini bildiruvchi ibodatxona, shohlar saroyi joylashgan arkning mudofaa devorlari bilan o'rab olinganligi, aholisining hunarmandchilikda, me'morchilikda erishgan yutuqlariga qarab A.A. Asqarov va T.Sh. Shirinovlar Jarqo'ton yodgorligini ilk shaharlar toifasiga kiritishadi va ilk davlatlarning "karlikoviy" yoki "chifdom" formasi bo'lganligini tasdiqlaydi.

O'rta Osiyoning janubi, xususan qadimgi dehqonchilik madaniyati rivojlangan Baqtriya, Marg'iyona va So'g'd misolida davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanishi sohasida A.S. Sagdullaevning tadqiqotlari diqqatga sazovor. U yozma manbalarni arxeologik ma'lumotlar bilan bog'lab, ilk davlatchilik taraqqiyotining quyidagi uchta bosqichini ko'rsatib berdi:

1. So'nggi bronza davrida kichik dehqonchilik o'lkalarida ilk davlatchilik belgilarining paydo bo'lishi;

2. Aryoshayana - kichik davlat birlashmalari;

3. Qadimgi Baqtriya - yirik davlat birlashmasi

S. Sagdullaevning tadqiqotlari asosan ilk temir davriga oid bo'lib, shu davr Baqtriya aholisining ijtimoiy tabaqalarini "Avesta" ma'lumotlari bilan taqqoslab, Baqtriya aholisi «Avesta»da keltirilgan ijtimoiy guruhlardan ham murakkab ekanligini ko'rsatdi. Janubiy Tojikistondagi so'nggi bronza davriga oid Vaxsh madaniyati misolida L.T. Piyankova oilaviy va jamoa munosabatlari masalalarini ochib berdi. U Vaxsh madaniyati qabrlarining bir xilliligi, topilgan idishlar sonining tengligi va idishlar shaklining o'xshashliklarini inobatga olib, Vaxsh madaniyati jamoa a'zolari teng xuquqli bo'lgan degan xulosaga kelgan. L.T. Piyankovanning tadqiqotlari Vaxsh ko'chmanchilari jamoasida monogomik nikoh normalarining hukmronligini ko'rsatadi.

XULOSA